



## O'QUV FAOLIYATIDA RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLARNING MAZMUNI

Umarova Gulzoda Bahodir qizi

Axborot tizimlari va menejment univversiteti

“Pedagogika” kafedrası assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17522040>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 3-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 4-noyabr 2025 yil

### KEY WORDS

*ruhiy rivojlanishning susayishi, ijtimoiy tarbiya, oila, hissiyot, iroda sferasidagi kamchiliklar, aqliy zaiflik, konstitutsional shakl, psixogen shakl, tserebral-endokrin infantilizm, tserebrastenik holat.*

### ABSTRACT

*Psixik rivojlanishning susayishi aksariyat hollarda vaqtinchalik holat emas, balki turg'un mazmun kasb etar ekan. Ruhiy rivojlanishning susayish turlari, aqliy darajasiularning ta'lim faoliyatidagi muvaffaqiyatsizliklarga va ularning hulq-atvorida aksariyat turli salbiy xislatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Yordamchi maktablarda ta'limning samarali usullaridan foydalanish, turli bolalarni qiziqitira oladigan ko'rgazmali materiallardan o'rinli foydalanish asosida, bola tafakkurni birmuncha shakllantirish, rivojlantirish, korrektsiyalash mumkin.*

### KIRISH.

Mamlakatimizda aholining alohida himoyaga muxtoj qatlamlari turmush darajasini oshirish va salomatliklarini mustahkamlashga respublikamizda ham alohida e'tibor berilmoqda.

Ta'lim - tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlash, boshqaruv jarayonining ijtimoiy - psixologik jihatlari, o'qituvchi hamda o'quvchi shaxsining milliy - psixologik xususiyatlari, bog'cha va mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining psixologik jihatlari umumpsixologik muammo sifatida mahalliy muhitda o'rganilgan bo'lib, lekin ham jismonan, ham ruxan sog'lom shaxsni tadqiq etish hamda ularga xos psixologik qonuniyatlardan jamiyatning taraqqiyoti uchun foydalanish o'rinlidir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

So'nggi yillarda olimlardan K.S.Lebedinskaya, G.P.Bertin', E.M.Dunaeva va boshqalarruhan sust rivojlanganlikni klinik -psixologik jihatdan quyidagi xillarga bo'lishni tavsiya etadilar. Bu holatni chuqurroq o'rganilgan sari, psixik rivojlanishning susayishi aksariyat hollarda vaqtinchalik holat emas, balki turg'un mazmun kasb etar ekan. Ruhiy rivojlanishning susayish turlariniolimler quyidagilardan iborat deb ko'rsatadilar:

Ruhiy rivojlanish susayishining konstitutsion turi;

Ruhiyrivojlanishsusayishiningsomatogen turi;

Ruhiyrivojlanishsusayishiningpsixogen turi;

Ruhiyrivojlanishsusayishiningorganik serebralturi.

Bu muammoning atroflicha o'rganilishiga Vlasova T.A., Pevzner M.S., Lubovskiy V.I., Lebedinskaya K.S. va boshqalar samarali hissa qo'shdilar.

Ijtimoiy tarbiyaning oiladan boshlanarekan, aynan ota va ona dastlabki ijtimoiy

ko'nikmalarni bola ongiga singdiruvchi, uning irodasini charhlovchi insonlardir. Oilaviy munosabatlar bolani nafaqat shaxs sifatida o'zligini anglash, balki o'zini u yoki bu jins vakili sifatida idrok etish va shaxsiy fazilatlarini takomillashtirishga ham yordam beradi. Oilaning to'liq bo'lishi, oiladagi psixologik iqlim, ya'ni, unda ham ota, ham onaning tinchlik-totuvlikda yashashlari va unda normal insoniy munosabatlar, sog'lom ma'naviy muhitning mavjudligi bolaning har tomonlama yaxshi rivojlanishi, sog'lom, aqlli, kuchli iroda sohibi bo'lib yetishiga imkon beradi.

Maktablarda ulgurmovchi yoki past o'zlashtiruvchi o'quvchilar orasida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ham uchrab turadi. Ularning bilish faoliyati- intellekti mantiqiy tafakkuri, idroki, xotirasi, ixtiyoriy diqqati, ish qobiliyati va boshqa xislatlariga birinchi o'rinda markaziy nerv sistemasining kasalliklari va pedagogik qarovsizlik, oilaviy mojaro, noto'g'ritarbiya natijasida ruhiy rivojlanishi sustlashadi. Bunday bolalarda hissiyot, iroda sferasidagi kamchiliklar birlamchi, aqliy zaiflik esa ikkilamchi hodisa bo'lib hisoblanadi.

T.A.Vlasova, M.S.Pevzner, V.I.Lubovskiy, T.V.Egorova, KS.Lebedinskaya, N.A.Nikashina, K.K.Mamedov, G'.B.Shoumarov, N.A.Tsipina, R.D.Triger va boshqa olimlarning ma'lumotlariga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining 5,8 % ini ana shunday bolalar tashkil etadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar aqliy darajasi jihatidan asosan ikki guruhga bo'linadi:

Yengil nuqsoni bor bolalar – bular maxsus sharoitda 1- 3 yil ta'lim- tarbiya olganlaridan keyin o'qishni ommaviy maktabning tegishli sinfida davom ettirishi mumkin.

### **NATIJALAR**

Ruhiy rivojlanishida sezilarli darajada orqada qolgan bolalar – bular maktabni bitirguniga qadar maxsus sharoitda o'qitilishi kerak. Bunday bolalar maktab dasturini sog'lom tengdoshlari qatori o'zlashtira olmaydi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni ommaviy maktabda hamma qatori o'qitish ta'lim jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni o'rtacha o'quvchining saviyasini orqaga tortadi, yaxshi va a'lo o'zlashtiruvchi o'quvchilarni yetarli darajada o'stirishga to'sqinlik qiladi.

Dastur materiallarini yaxshi o'zlashtira olmaganligi tufayli ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar doim muvaffaqiyatsizliklarga uchrayveradi, bu narsa ularning hulq-atvorida aksariyat turli salbiy xislatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Ruhan sust rivojlanganlikning konstitutsional shaklini xarakterlovchi belgilarga quyidagilar kiradi: bolaning gavda tuzilishi sog'lom tengdoshlarinikiga nisbatan 1- 2 yosh kichik ko'rinadi. U o'zini bog'cha yoshidagilarga o'xshab tutadi va ta'lim olish uchun hali "yetilmagan" bo'ladi. Bunday bola o'quv faoliyatiga yaxshi kirishib ketmaydi, chunki unda o'qishga qiziqish yo'q, ish qobiliyati past. Mas'uliyatsizlik, motivlarning sustligi, ruhiy jarayonlardan analiz, sintez qobiliyatlarining yaxshi rivojlanmaganligi tufayli o'qish va yozishni, matematikani katta qiyinchiliklar bilan o'zlashtiradi. Dars vaqtida tez charchab qolish hollari, bosh og'rib turishi konstitutsion shakldagi bunday bolada ish qobiliyati, faollik yanada pasayib ketishiga sabab bo'ladi.

Rivojlanishdagi bu kamchilikka bola onasining homiladorligi davrida qalqonsimon bezlari faoliyatining buzilganligi, yurak-tomir kasalliklari sabab bo'lishi mumkin.

Ilk yoshda xar xil surunkali kasalliklar bilan tez-tez kasallanib turish natijasida bola yaxshi o'sib- unmay qolishi mumkin, bu esa o'z navbatida ruhiy jihatdan rivojlanishida orqada qolishga, kechikishga olib keladi, sust rivojlanganlikning somatik shakli deb shunga aytiladi. Bolada surunkali infeksiyalar, allergik holat tug'ma porok va shu kabi kasalliklar ayniqsa tez uchrab turadi.

Ruhiy rivojlanishning somatogen sabablarga aloqador sustligi bolada asteniya (faollikni susaytiruvchi) holatini vujudga keltiradi. Ayrim bolalarda somatogen infantilizm kuzatiladi, ya'ni bola o'sibunmagan, go'dak taxlil bo'lib qolaveradi. Bunda bola psixikasida nevrozga o'xshash holatlardan o'z kuchiga ishonmaslik, qo'rqqoqlik, injiqlik, erkalik, qiziqishning pastligi va boshqalar kuzatiladi.

Ruhan sust rivojlanganlikning psixogen shaklida bola erta yoshligidan noqulay,

noto'g'risharoitda tarbiyalanadi va shu tarbiyaning salbiy tomonlari ruhan rivojlanishiga ta'sir o'tkazgan bo'ladi. Shu xildagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini 3 guruhga bo'lish mumkin:

Bola tarbiyasi bilan mutlaqo shug'ullanmaslik, uni butunlay o'z holiga tashlab qo'yish, bunda bolalarda burch va ma'suliyat hissi shakllanmaydi. Aql-idrokning rivojlanishi, qiziqishlari, bilish faoliyati, his-tuyg'u va iroda yetishmasligi ustiga o'quv fanlarini o'zlashtirish uchun zarur bilim va taassurotlarning yetishmasligi ham qo'shiladi.

Bolani har tomonlama erkalatish, yetarli mustaqil faoliyatga o'rgatmaslik, tashabbuskorlik, mas'uliyat xissini shakllantirmaslik bolani «oila erkasi» qilib o'stirish, haddan tashqari uning ko'ngliga qarab ish tutish natijasida ham bola ruhiy rivojlanishida bir qadar orqada qolishi mumkin.

Bolaga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lish, jismoniy jazolash, qattiq qo'pollik qilish, ota-onalarning al'kogolizmga aloqador tajovvuzkorona munosabatlari bolani mudom asabiylashtirib, ruhan rivojlanishdan orqada qolishiga sabab bo'ladi. Bunday bolalarda qo'pollik, jur'atsizlik, tashabbusizlik, mustaqilsizlik, qo'rqqoqlik va boshqa hislatlar shakllanadi. Bularning hammasi aql-idrokiga, bilish faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ruhan sust rivojlanganlikning psixogen shaklida aql-idrok, bilish faoliyatiga aloqador kamchiliklarga aksari noto'g'ritarbiya natijasida paydo bo'lgan hislatlar ham qo'shib, natijada shaxsning rivojlanishi izdan chiqadi, unda patologik hislatlar yuzaga keladi. Ana shunday bolalarni pedagogik qarovsiz bolalardan ajrata olish lozim.

#### **MUHOKAMA**

Pedagogik qarovsiz bolalarning psixikasi normal bo'lib, ular noto'g'ritarbiyalanganligi natijasida ulgurmovchi, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar qatoriga o'tib qoladilar. Xolbuki, ruhan sust rivojlangan bolalarda shaxsiyatning xar tomonlama noto'g'ririvojlanishi markaziy nerv sistemasidagi yengil darajadagi organik jarohatlanish bilan bog'liq.

Ruhan sust rivojlanganlikning eng murakkab va keng tarqalgan psixogen shaklida bosh miyaning kasalligiga, yaxshi yetilmaganiga aloqador o'zgarishlar kuzatiladi. Olimlarimizning bergan ma'lumotlariga ko'ra bunday bolalarning 50 % da nerv sistemasida organik nuqsonlar bo'ladi. Bu ularning his-tuyg'u, irodaviy holatlari taraqqiy etmaganligiga, asosan organik infantilizm tarzida namoyon bo'ladi. Miyaga aloqador organik infantilizmni ikkiga bo'lishi mumkin:

Kayfiyati va ruxiyati o'zgaruvchan, aksari, ko'tarinki ruhdagi bolalar, ularda yosh bolalarga xos hislatlar saqlangan bo'ladi.

Ko'proq kayfiyati past bo'lib mayus tortib yuradigan bolalar, ularda vazifani mustaqil hal qila olmaslik, tashabbus ko'rsata olmaslik, qo'rqish holatlari ko'riladi.

Miyaga aloqador organik xarakterdagi yana shu ikki xil infantilizm ko'p holatlarda qator qo'shimcha hodisalar bilan birga davom etadi. Bularga quyidagilar kiradi:

Tserebral-endokrinin fantilizm. Bunda asosan ichki sekretiya bezlari faoliyati buzilgan bo'ladi. Natijada bolalarda his-tuyg'ular yaxshi rivojlanmay nevropatiya holatlari yuzaga keladi. Bolaning uyqusi, ishtahasi yaxshi bo'lmaydi, dispepsiya holatlariga moyillik paydo bo'ladi.

Tserebrastenik holatlar, bular ham tez-tez uchrab turadi. Markaziy nerv sistemasi tez charchaydi, neyrodinamik o'zgarishlar kuzatiladi. Natijada aqliy qobiliyati susayib, xotira pasayadi, diqqati tarqoq bo'lib qoladi, tez ta'sirlanish, qiz bolalarda yig'loqilik, o'g'il bolalarda xaddan tashqari qo'zg'aluvchanlik kuzatiladi, bola ish qobiliyati past, arzimagan narsaga tez charchaydigan bo'lib qoladi.

Tabiatan nevrozga yaqin holatlar, bular qorong'udan, yakkalikdan qo'rqish, o'zi va atrofdagilar sog'lig'i uchun xavfsirash, giper kinezlar, duduqlanish, enurez, kabi hodisalar bilan birga ifodalanadi.

Psixomotor qo'zg'aluvchanlik – asosan o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi. Serharakatlik, diqqatning tarqoqligi, tez chalg'ish bularga xos xarakterlidir.

Affektiv o'zgarishlar – kayfiyati-ruhiyatning aytarli sababsiz aynib turishi, tajovuzkorlik qilishga moyil bo'lish bilan xarakterlanadi.

Psixopatik o'zgarishlar – aqliy faoliyatga rag'bat pastligi, o'qishga salbiy munosabatda bo'lish, o'g'rilik qilish (kleptomaniya), Ko'proq yolg'on gapirish kabi salbiy xislatlarni o'z ichiga oladi.

Epileptik buzilishlar – har xil ko'rinishlarda tutqanoq tutib turishi bilan namoyon bo'ladi.

Apatik-adinamik buzilishlar – tashabbuskorlik pasayishi, aqliy faoliyat sustligi, xaddan tashqari emotsional bo'shanglik bilan xarakterlanadi.

Ruhiy sust rivojlanishning tserebral shakli miya shikastlari, meningit, meningo entsefalit, gidrotsefaliya va boshqa kasalliklar natijasi bo'lib hisoblanadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni o'qishi pasayib ketadi, biroq bu holat o'z vaqtida va to'g'ri aniqlansa, bolalarga tegishli yordam tashkil etilsa, ular ommaviy maktab dasturini o'zlashtira oladilar.

Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi bolalar va o'smirlar gigienasi institute xodimlari, jumladan N.P.Vayzman va boshqa olimlarning o'tkazgan ilmiy tekshirishlari shuni ko'rsatadiki, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda o'zlashtirish jihatidan olganda sog'lom va debil bolalar o'rtasida oraliq o'rinda turadi. Bu olimlar tekshirish vaqtida debil va ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarga bir xildagi topshiriqlarni berib ko'radilar, shunda normal sog'lom bolalar berilgan vazifani to'g'ri tushunib, uni kerakli tartibda bajargan bo'lsalar, debil bolalar vazifani tushunmay, bajara olmaydilar, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar esa xuddi shunday vazifani qisman tushunib, qisman bajarishadi.

Ruhiy rivojlanishi susaygan bolalarda idroklarning nuqsonliligi asosida tasavvurlarining yomonligi oqibatida, tafakkur jarayonlari ularga mos ravishda normal darajadan past bo'ladi. Ruhiiy rivojlanishi susaygan bolalar o'zlarining normal tengdoshlaridan o'z tafakkurlarining konkretligi, umumlashtirish jarayonlarining sustligi bilan ajralib turadilar.

Yordamchi maktablarda ta'limning samarali usullaridan foydalanish, turli bolalarni qiziqitira oladigan ko'rgazmali materiallardan o'rinli foydalanish asosida tafakkurni birmuncha shakllantirish, rivojlantirish, korrektsiyalash mumkin. Ruhiiy rivojlanishi susaygan bolalar tafakkurini maxsus mashqlar bilan rivojlantirish mumkin va normal tengdoshlari safiga qo'shilishi mumkin. Bu taxlitdagi mashqlar nisbatan ijobiy natijalar bergan. Ruhiiy rivojlanishi susaygan bolalar tafakkurini bir tizimda, izchil ravishda, ma'lum dastur asosidagina rivojlantirib borish maqsadga muvofiqdir.

Bog'cha tarbiyachilari va boshlang'ich maktab o'qituvchilari ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning maxsus sharoitda ta'lim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak, ularni o'z vaqtida aniqlab, boshqa bolalardan ajratib olib, ota-onalarga mutaxassis psixonevrologlarga murojaat qilishga maslahat berishlari lozim. Ruhiiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan inklyuziv sog'lom tengdoshlari orasida yoki maxsus muassasalarda davolab, himoya etish va ruhiy faoliyatni rostdashni ko'zlab alohida ta'lim-tarbiya ishlari olib boriladi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, ruhiy rivojlanishi susaygan bolalar xotirasi ham tafakkuri ham rivojlanadi, faqatgina ruhiy rivojlanishi susaygan bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Ruhiiy rivojlanishi susaygan bolalarga bilim berish vaqtida ular ma'lumotni esda olib qoladilar ammo ruxiy buzilishlar sababli unitish kuchliroq bo'ladi. Shuning uchun ular egallashi lozim bo'lgan materialni kam o'zlashtiradilar. Maxsus maktab-internatda ta'lim olayotgan o'quvchilarda ma'lum faoliyatgaqiziqishlarni shakllantirishda ularining tafakkur xususiyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan trening mashg'ulotlarni tashkil qilish lozim:

Shaxsni o'z imkoniyatlarini real baholashga o'rgatish;

O'z fikrini boshqalarga yetkazib bera olish malakasini shakllantirish.

Shaxslararo munosabatda o'zini erkin tuta olish malakasini shakllantirish;

Mustaqil fikrlash, mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish.  
Innovation faoliyatga doir ko'nikmalarni hosil qilish.  
O'ziga nisbatan ichonch hosil qilishga o'rgatish muhimdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ijtimoiy psixologiya T.L.Xurvaliyeva, S.N.Jo'rayeva (2023)
2. Umumiy psixologiyasi F.I.Xaydarov, N.I.Xalilov (2019)
3. Kasb faoliyat psixologiyasi Z.N.Yulchiyeva (2022)
4. Boshqaruv jarayonlarida rahbarlik faoliyatini rivojlantirish (2022)
5. Ю.В.Полякова. Корпоративная культура как инструмент повышения эффективности деятельности организации [Электронный ресурс]. Режим доступа: [http://www.msnauka.com/14\\_NPRT\\_2010/Economics/66548.doc.htm](http://www.msnauka.com/14_NPRT_2010/Economics/66548.doc.htm)
6. О.С.Виханский, А.И. Наумов Менеджмент: Учебник для вузов по эконб. спес. и направл. – Трете изде. – М.: Гардарика, 2008. –С.214.
7. Менеджмент средней и высшей школы: 100 новых понятий: Сравнительный словарь на русском и немецком языке / Авторы-издатели: О. Грауман, Р.В. Кек, М.Н. Певзнер, А.Г. Ширин. - Хильдесхайм, Германия, 2004.
8. Э.Ф. Зеер, Модернизация профессионального образования: компетентностный подход / Э.Ф. Зеер, А.М. Павлова, Э.Э. Сыманюк. - М.: МПСИ, 2005.- 216 с.
9. M. Sharifxo'jaev., Q.Abdullaev. Menejment. Daslik. - T.: O'qituvchi, 2001.-B.43.
10. Л.В.Пергудов, М.Х.Саидов. Менеджмент экономика вищего образования. - Т.: Молия, 2001.-B.65.
11. Abdurasulov , J., & Toshpo'latov , A. . (2025). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ У ПОДРОСТКОВ. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 5(9), 90–99. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/60762>
12. Abdurasulova, Y. . (2025). VOLEYBOLCHILARDA SAKRASH QOBILIYATI VA TEZKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 2(10), 125–129. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/62632>
13. Rustamov , E. (2025). JISMONIY TARBIYA VA SPORT TIZIMIDA YENGIL ATLETIKA SPORT TURINING O'RNI. *Евразийский журнал академических исследований*, 5(9), 121–126. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/60093>
14. Rustamov , E. (2025). VOLEYBOL SPORT O'YINIDA TEXNIK, TAKTIK VA JISMONIY TAYYORGARLIGI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 5(9), 59–63. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/60095>
15. Azimova , D. (2025). THE ROLE OF NANOSTRUCTURED MATERIALS IN ENHANCING ENERGY EFFICIENCY AND THEIR APPLICATION IN AEROSPACE ENGINEERING. *Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук*, 5(9), 13–27. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMTCS/article/view/60766>
16. Abdurasulov , J. (2022). CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANI O'QITUVCHISIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(11), 983–988. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/5305>
17. Abduqodirova, D., & Abdurasulov, J. (2025). YOSHLARDA HARBIY-VATANPARVARLIK TUYG'USINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(1), 50–53. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/view/42882>

18. Abduqodirova, D., Abdulhaqov, U., & Mamatova, Z. (2025). EMOTSIONAL KREATIVLIKNING TALABALAR QAROR QABUL QILISH JARAYONIGA TA'SIRI. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 3(4), 64–69. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/49726>
19. Abduqodirova, D., & Mirislomov, M. (2025). GEOGRAFIYA VA PSIXOLOGIYA FANLARI TUTASHGAN CHEGARA: PSIXOGEOGRAFIYANING SHAKLLANISH TARIXIGA NAZAR. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 2(5, PART 2), 143–149. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/52569>
20. Abduqodirova, D. (2025). TALABALARDA PSIXOLOGIK STRESSNI YENGISH. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 3(2), 69–73. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/45019>
21. Сатторов, Б. (2025). АКТУАЛЬНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ШКОЛЬНОЙ ДЕЗАДАПТАЦИИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 5(10), 167–178. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/62613>

